LINGVOMADANIY KOD — TIL VA MADANIYAT O‘RTASIDAGI SEMANTIK KO‘PRIK

Muallif: Valijonova Mag‘ruba San’atjon qizi.
Qo‘qon davlat universiteti 1-kurs magistranti.
Tel: +998910591417
Автор: Валиджанова Магруба Санатжон кизи.
Магистрант 1 курса Кокандского государственного университета.
Тел: +998910591417
Author: Valijonova Mag‘ruba San’atjon qizi.
1st-year Master’s student, Kokand State University.
Tel: +998910591417

Annotatsiya:

Maqolada lingvomadaniy kodlarning nazariy mohiyati va ularning til hamda madaniyat o‘rtasidagi semantik ko‘prik vazifasi tadqiq etilgan. Muallif o‘zbek tilshunosligidagi mavjud nazariy qarashlarga tayanib, madaniyat kodlarining tabiat, antropologik, ijtimoiy va ramziy turlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda til birliklarining konnotativ va ramziy ma’nolari milliy tafakkur modeli asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, madaniyat kodi, semantika, lisoniy manzara, milliy tafakkur, antropologik kod, ramziylik.

Аннотация:

В статье исследуется теоретическая сущность лингвокультурных кодов и их роль как семантического моста между языком и культурой. Опираясь на теоретические взгляды в узбекском языкознании, автор анализирует природные, антропологические, социальные и символические типы культурных кодов. В исследовании раскрываются коннотативные и символические значения языковых единиц на основе национальной модели мышления.

Ключевые слова: лингвокультурология, код культуры, семантика, языковая картина мира, национальное мышление, антропологический код, символика.

Abstract:

The article examines the theoretical essence of linguocultural codes and their role as a semantic bridge between language and culture. Drawing on theoretical perspectives in Uzbek linguistics, the author analyzes natural, anthropological, social, and symbolic types of cultural codes. The study reveals the connotative and symbolic meanings of linguistic units based on the national thinking model.

Keywords: linguoculturology, cultural code, semantics, linguistic world picture, national thinking, anthropological code, symbolism

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, lingvomadaniyatshunoslik doirasida til birliklarida mujassamlashgan milliy-madaniy mazmunni aniqlash, ularning semantik va funksional xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, mentaliteti va qadriyatlarini o‘zida aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy-madaniy hodisadir. konnotatsiya, madaniy sema, pretsedent birliklar, lisoniy ong, olamning Lingvokulturologiya fani rivojlangani sari u bilan birga yangi tushunchalar ham paydo bo‘lmoqda. Jumladan, "Lingvomadaniyatshunoslik fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy lisoniy manzarasi kabi bir qator yangi tushunchalar olib kirdi. Ular qatorida madaniyat kodlari tushunchasi alohida mavqega ega"[5.15]. Ushbu tushuncha til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni chuqurroq anglashda muhim nazariy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bois, lingvomadaniy kodlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va ijtimoiy fanlar uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitida turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchayib borayotgan bir paytda,

milliy o‘zlikni saqlash va uni til orqali ifodalash masalasi yanada muhimlashmoqda. Aynan lingvomadaniy kodlar ushbu jarayonda milliy madaniyatni saqlovchi va uzatuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolaning maqsadi lingvomadaniy kod tushunchasining nazariy mohiyatini yoritish, uning til va madaniyat o‘rtasidagi semantik bog‘lovchi vazifasini ochib berishdan iborat. Shuningdek, maqolada lingvomadaniy kodlarning til birliklarida ifodalanish xususiyatlari hamda ularning milliy tafakkur bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi.

Muhokama va natijalar

Lingvokulturologiyada “kod” tushunchasi muhim nazariy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Umumiy ma’noda kod — bu ma’lum axborotni ifodalash, saqlash va uzatishga xizmat qiluvchi belgilar tizimidir. Kodlar inson tomonidan borliqni idrok etish va uni tartibga solish jarayonida shakllanadi hamda turli sohalarda — tilshunoslik, semiotika, madaniyatshunoslikda keng qo‘llaniladi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan kod til birliklari orqali ifodalanadigan va muayyan ma’noni anglatadigan belgilar tizimi sifatida qaraladi. Biroq lingvokulturologiya doirasida ushbu tushuncha yanada kengroq mazmun kasb etib, u faqat lingvistik emas, balki madaniy axborotni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Shu asosda lingvomadaniy kod tushunchasi shakllanadi. Lingvomadaniy kod — bu til orqali ifodalanadigan va muayyan xalqning madaniy qadriyatlari, urf-odatlari, dunyoqarashi hamda milliy tafakkurini aks ettiruvchi belgilar tizimidir. U til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida lingvomadaniy kod tushunchasining shakllanishi va rivojlanishida filologiya fanlari doktori, professor Durdona Xudoyberganovaning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Xususan, olimaning “Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat kodlari tushunchasi va talqini” nomli maqolasi mazkur yo‘nalishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu tadqiqot lingvomadaniy kodlarga oid nazariy qarashlarning o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishiga zamin yaratdi. Olimaning ta’kidlashicha, lingvomadaniyatshunoslikda madaniy kodlar “olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof

qilinadi”[6.30]. Ushbu yondashuv til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi. Durdona Xudoyberganova mazkur tushunchaga quyidagicha ta’rif beradi: “... ushbu termin muayyan madaniy mazmunni shartli, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimini bildiradi”[6.30]. Ushbu ta’rif lingvomadaniy kodlarning semantik va semiotik mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, olima lingvomadaniy kodlarning kelib chiqishini inson tafakkuri bilan bog‘laydi: “Lingvomadaniy kodlar inson tomonidan olamni kategoriyalashtirish jarayonining mahsulidir va bunda inson tili madaniy mazmunning eng muhim ifodachilaridan biri hisoblanadi”[6,31]. Bu esa lingvomadaniy kodlarning kognitiv asosga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Lingvomadaniy kodlarning faqat til birliklarida aks etibgina qolmay, balki nutq jarayonida ham faol ishlatilishini alohida ta’kidlash lozim. Chunki har bir nutqiy vaziyatda lingvomadaniy kodlar orqali muayyan madaniy axborot uzatiladi va bu axborot tinglovchi tomonidan milliy tafakkur asosida qabul qilinadi. Shu jihatdan lingvomadaniy kodlar kommunikativ jarayonning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Lingvomadaniy kodlarning yana bir muhim xususiyati ularning ko‘p qatlamli semantik tuzilishga egaligidir. Ya’ni bunday birliklar nafaqat bevosita ma’noni, balki yashirin, ramziy va baholovchi ma’nolarni ham o‘z ichiga oladi. Bu esa lingvomadaniy kodlarni oddiy til birliklaridan farqlab, ularni madaniy axborot tashuvchisi sifatida ajratib ko‘rsatadi. Lingvomadaniy kodning mohiyatini to‘liq anglash uchun avvalo uning semantik tabiatiga e’tibor qaratish zarur. Har qanday til birligi nafaqat leksik ma’noga, balki qo‘shimcha — konnotativ, madaniy va emotsional ma’nolarga ham ega bo‘ladi. Aynan shu qo‘shimcha ma’no qatlamlari lingvomadaniy kodni yuzaga chiqaradi. Masalan, o‘zbek tilidagi “non” so‘zi oddiy oziq-ovqat nomi bo‘lish bilan birga, muqaddaslik, baraka, hayot timsoli sifatida ham talqin qilinadi. Bu esa ushbu birlikda milliy-madaniy kod mujassam ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, “ko‘z tegmoq” iborasi oddiy fiziologik jarayonni emas, balki xalq orasidagi e’tiqodiy qarash — yomon nazar tushunchasini ifodalaydi. Yoki “oq yo‘l” birikmasi safarga chiqqan kishiga nisbatan ishlatilib, ezgu tilak, omad ramzi

sifatida talqin qilinadi. Bu kabi birliklar lingvomadaniy kodlarning til tizimida faol amal qilishini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda lingvomadaniy kodlarni tasniflash masalasi ham muhim nazariy muammolardan biridir. Zamonaviy tadqiqotlarda ular quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

— tabiat kodlari (yer, suv, osmon, tog‘ kabi tushunchalar orqali ifodalangan madaniy ma’nolar);

— antropologik kodlar (inson, uning tana a’zolari, xulq-atvori bilan bog‘liq birliklar);

— ijtimoiy kodlar (jamiyatdagi munosabatlar, ijtimoiy rollar va me’yorlar);

— ma’naviy-madaniy kodlar (axloqiy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar);

— ramziy kodlar (ranglar, sonlar, obrazlar orqali ifodalangan ma’nolar).

D.Xudoyberganovaning "Lingvomadaniyatshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da madaniyat kodlari, somatik kod, vaqtga doiï kod, makoniy kod, predmetli kod, ma'naviy kod, biomorf kod terminlari izohlab berilgan[4,46].

Tabiat kodlari insonning atrof-muhit, tabiiy hodisalar va jonli tabiat bilan bog‘liq tasavvurlarini ifodalovchi madaniy-ma’naviy belgilar tizimidir. Bu kodlar orqali xalqning tabiatga munosabati, uni idrok etish darajasi va tabiat hodisalariga bergan ramziy ma’nolari namoyon bo‘ladi. Tabiat kodlari ko‘pincha metaforik va ramziy ma’nolar bilan boyitilgan bo‘lib, ular xalq og‘zaki ijodi, maqollar, afsonalar va badiiy matnlarda keng qo‘llaniladi. Masalan, quyosh obrazi ko‘pincha hayot, yorug‘lik va baxt ramzi sifatida talqin qilinadi. Oy esa go‘zallik, sokinlik va noziklikni ifodalaydi. Buloq suvi poklik va hayot manbai sifatida madaniy ongda mustahkam o‘rin egallagan. Hayvonot dunyosidan burgut kuch va erkinlik timsoli sifatida qaraladi. O‘zbek xalq maqollarida ham tabiat kodlari keng uchraydi: “Yomg‘ir yog‘sa, yer yashnar” maqolida tabiatning hayotbaxsh kuchi va yangilanish g‘oyasi ifodalangan. Bu kabi birliklar tabiat va inson o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Antropologik kodlar insonning o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan tana a’zolari, tashqi ko‘rinishi, psixologik holati va insoniy fazilatlarni ifodalovchi madaniy belgilar

tizimidir. Ushbu kodlar insonni markaziy obyekt sifatida talqin qilib, uning ichki va tashqi dunyosini ramziy ma’nolarda aks ettiradi. Masalan, ko‘z idrok, bilim va haqiqatni anglash ramzi sifatida ishlatiladi. Yurak esa insonning hissiy dunyosi, mehr va muhabbat markazi sifatida talqin qilinadi. Qo‘l mehnat, yaratuvchanlik va yordam berish timsolidir. Ijtimoiy nutqda uchraydigan “yuragi keng inson” iborasi saxovat va mehribonlikni ifodalaydi. Oqsoqol obrazi esa tajriba, donishmandlik va hurmat timsoli sifatida antropologik kodlarning muhim ko‘rinishlaridan biridir.

Ijtimoiy kodlar jamiyatdagi insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy rollar, odob-axloq normalari va an’anaviy marosimlarni ifodalovchi lingvomadaniy tizimdir. Bu kodlar jamiyatning ichki tartibini, madaniy qadriyatlarini va ijtimoiy ongini aks ettiradi. Masalan, salomlashish ijtimoiy munosabatlarning boshlanishi va hurmat ifodasi sifatida qaraladi. Non tutish esa o‘zbek madaniyatida chuqur hurmat va ehtirom belgisi hisoblanadi. To‘y marosimi jamiyat birligi, quvonch va ijtimoiy hamjihatlikni ifodalaydi. O‘zbek xalqida mashhur “Mehmon – atoyi Xudo” maqoli ijtimoiy kodning yorqin misolidir. Bu maqol mehmonni hurmat qilish va uni qadrlash xalqning asosiy ijtimoiy qadriyatlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Ma’naviy-madaniy kodlar xalqning axloqiy qarashlari, diniy e’tiqodi, urf-odatlari va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi murakkab semantik tizimdir. Ushbu kodlar milliy ongning eng chuqur qatlamlarini aks ettiradi. Masalan, halollik eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraladi. Sabr insonning ma’naviy yetukligini ifodalaydi. Duoga qo‘l ochish esa ma’naviy poklanish va ilohiy yordamga ishonch ramzidir. Ota-onaga hurmat ham muhim ma’naviy-madaniy kodlardan biridir. Bu qadriyat jamiyatning axloqiy asosini belgilaydi. “Halol mehnat – baraka manbai” iborasi esa mehnat va ma’naviyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi.

Ramziy kodlar muayyan predmet, rang, belgi yoki obraz orqali chuqur ma’no va g‘oyalarni ifodalovchi madaniy tizimdir. Bu kodlar ko‘pincha universal yoki milliy darajada shakllangan bo‘lib, ular vizual va semantik tasvirlar orqali ishlaydi. Masalan, oq rang poklik va tinchlikni, qizil rang esa kuch, hayot va ba’zan xavfni ifodalaydi. Bayroq davlat mustaqilligi va milliy g‘urur ramzidir. Kabutar tinchlik belgisi sifatida

keng tanilgan. Shuningdek, toshbaqa sabr va uzoq umr ramzi, kalit esa ochilish va imkoniyatlar belgisi sifatida talqin qilinadi. Madaniy marosimlarda uchraydigan tug‘ilgan kun shamlarini o‘chirish odati hayotning davriyligi va inson umrining bosqichlarini ifodalovchi ramziy kod hisoblanadi. Shuningdek, “Ko‘pchilik xalqlar madaniyatida ham sher kuch-qudrat, savlat, saltanat ramzi, hayvonlar podshohi hisoblanadi. Boshqa tomondan shafqatsizlik, vahshiylik, hayvoniy hayot tarzini namoyon qiladi”[3.14].

Shuningdek, lingvomadaniy kodlar diskursiv darajada ham namoyon bo‘ladi. Ya’ni ular faqat alohida so‘z yoki iboralarda emas, balki matn va nutq jarayonida ham faol ishlatiladi. Masalan, badiiy matnlarda muallif lingvomadaniy kodlardan foydalanib, obraz yaratadi, milliy muhitni tasvirlaydi va o‘quvchiga ma’lum madaniy axborotni yetkazadi. Bu esa lingvomadaniy kodlarning pragmatik funksiyasini ko‘rsatadi.

Globalizatsiya sharoitida lingvomadaniy kodlar masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri natijasida ayrim milliy kodlar yo‘qolish yoki transformatsiyaga uchrash xavfi ostida qolmoqda. Shu bois, lingvomadaniy kodlarni saqlash, ularni ilmiy jihatdan o‘rganish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish muhim vazifalardan biridir.

Umuman olganda, lingvomadaniy kodlar til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab va ko‘p qirrali munosabatlarni aks ettiruvchi muhim ilmiy kategoriya hisoblanadi. Ularni chuqur o‘rganish orqali nafaqat tilning ichki tuzilishini, balki xalqning madaniy olamini ham kengroq anglash imkoniyati yuzaga keladi.

Lingvomadaniy kodlarni tadqiq etish orqali til birliklarining yuzaki ma’nosidan tashqari, ularning ortida turgan milliy tafakkur modeli va madaniy semantika aniqlanadi. Masalan, tabiat, ramz, ijtimoiy yoki antropologik kodlar orqali xalqning atrof-muhitga munosabati, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy qarashlari namoyon bo‘ladi. Bu esa tilni faqat lingvistik tizim sifatida emas, balki madaniy hodisa sifatida ham tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, lingvomadaniy kodlar milliy identitetni shakllantirish va uni anglashda muhim rol o‘ynaydi. Har bir xalqning tilida o‘ziga xos madaniy belgilar tizimi mavjud bo‘lib, ular orqali millatning o‘ziga xosligi, tarixiy xotirasi va ma’naviy qadriyatlari ifodalanadi. Shu jihatdan, lingvomadaniy kodlarni o‘rganish milliy ongni mustahkamlash va madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, lingvomadaniy kodlar tarjimashunoslik va ta’lim jarayonida ham katta ahamiyatga ega. Ularni to‘g‘ri anglash matnni chuqur tushunish, uning madaniy kontekstini to‘g‘ri talqin qilish imkonini beradi. Aks holda, madaniy kodlar e’tibordan chetda qolsa, matnning asl ma’nosi to‘liq ochilmay qolishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, lingvomadaniy kodlar til va madaniyatni bir-biriga bog‘lovchi muhim semantik ko‘prik bo‘lib, ular orqali xalqning dunyoni idrok etish modeli, qadriyatlar tizimi va ma’naviy olami chuqurroq anglanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Ergashova M. Barqaror birikmalarning lingvokulturologik xususiyatlari: ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari nashriyoti, 2021. – B. 54.

2.Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Noshir”, 2019. – B. 78.

3.Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent, 2019. – B. 14.

4.Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon Zamin Ziyo, 2015. – B. 46.

5.Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – №3. – B. 15.

6.Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat: ilmiy risola. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B. 31.